



TOSHKENT SHAHAR  
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT  
SHAHRINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*  
*yanvar-sentabr*





## TOSHKENT SHAHRINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahrida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3 020,5** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **64,1** ming kishiga yoki **2,2 %** ga ko'paydi.

### Doimiy aholi soni

**3 020,5** ming  
kishi

### Tabiiy o'sish

**+46,1** ming  
kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- oktabr holatiga

#### Erkaklar




**1481,9** ming kishi

#### Ayollar



**1538,6** ming kishi

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi , ming kishi



## Toshkent shahri bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar




## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1-oktabr holatiga (foizda)

**15,5 %**

Mehnatga layoqatli  
yoshdan kattalar



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Toshkent shahar doimiy aholisi sonining **27,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **15,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2934,3</b>	<b>3020,5</b>	<b>102,9</b>
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	291,7	298,1	102,2
Bektemir	55,0	59,1	107,5
Yunusobod	364,8	373,9	102,5
Mirzo-Ulug'bek	321,1	329,2	102,5
Mirobod	148,7	151,7	102,0
Shayxontohur	358,9	364,3	101,5
Olmazor	392,5	402,3	102,5
Sergeli	159,5	166,7	104,5
Yakkasaroy	126,2	132,1	104,7
Yashnobod	286,2	297,6	104,0
Yangihayot	159,0	171,0	107,5
Chilonzor	270,7	274,5	101,4

\*Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o'zgarish bo'lgan

## Tug'ilganlar soni

**Ma'lumot uchun!:** tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

(O'g'il bola):

29,6 ming kishi

(Qiz bola):


27,7 ming kishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **57,3** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **51,7 %** ni, qiz bolalar **48,3 %** ni tashkil etadi.

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2023 yil yanvar-sentabr*



2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,6 %**
- 2 nafar – **2,3 %**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1 %**

### Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

*yanvar-sentabr holatiga, kishi*

	2022- yil	2023- yil	O’sish sur’ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>54943</b>	<b>57332</b>	<b>104,3</b>
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	6500	5911	90,9
Bektemir	1212	2345	193,5
Yunusobod	6764	7364	108,9
Mirzo-Ulug‘bek	4802	5064	105,5
Mirobod	2492	2339	93,9
Shayxontohur	6266	5808	92,7
Olmazor	8009	7946	99,2
Sergeli	3795	1887	49,7
Yakkasaroy	2333	5459	234,0
Yashnobod	4831	3993	82,7
Yangihayot	2810	4268	151,9
Chilonzor	5129	4948	96,5

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **57,3** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,6** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan plus **0,3** promillega ko'paygan (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **25,3** promille bo'lgan).




## VAFOT ETGANLAR



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **11,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,8** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,8** promille).


## O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **58,1 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **14,1 %** i – o'simtalardan, **6,1 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **3,0 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **9,4 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **16,2** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,5** promille bo‘lgan).

### NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-sentabr oylarida **4,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida **2,0** promille bo‘lgan).

### Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi 2023- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning **48,4** % i farzandsiz, **27,4** % i bitta farzand bilan va **24,2** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.


## AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **73532** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **55537** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi **17995** kishini tashkil etadi. 2022- yilning mos davrida **29573** kishi bo‘lgan.

## Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, (ming kishi)




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **73,5** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **32,9** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-3,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **35,9** promille bo'lган).

## Toshkent shahar bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, (ming kishi)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **55,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **24,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **2,6** promillega ko'paygani kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **22,2** promille bo'lган).



## Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarni qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarni qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaqidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 71 203-88-23, 48*